

KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI YANADA  
KENGAYTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev  
17-avgust kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan  
Qozog‘iston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — tashqi ishlar vaziri  
Murat Nurtleuni qabul qildi.



O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlash, yangi amaliy mazmun bilan boyitish masalalari ko‘rib chiqildi.

Suhbat avvalida tashqi ishlar vaziri Murat Nurtleu davlatimiz rahbariga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston yetakchisi keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani, jumladan, parlamentlar, hukumatlar, hududiy ma‘muriyatlarda, jamoatchilik va tadbirkorlar darajasida sarmahsul muloqotlar amalga oshirilayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Qo‘shma Hukumatlararo komissiya va Ishchi guruh samarali faoliyat yuritmoqda. Tovar ayirboshlash hajmi ko‘payib, ikki mamlakat yetakchi korxonalari o‘rtasidagi kooperatsiya ko‘lami kengaymoqda. Madaniy-gumanitar tadbirlar muntazam o‘tkazib borilmoqda.

Uchrashuvda siyosiy muloqotlarni yanada faollashtirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridagi loyihalarni jadallashtirish, gumanitar almashinuv dasturlarini kengaytirish hamda Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo‘shnichilik va sheriklikni mustahkamlash choralarini ko‘rishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
F A R M O Y I S H I

“FAOL TADBIRKOR”  
KO‘KRAK NISHONI BILAN  
TAQDIRLASH TO‘G‘RISIDA

Milliy iqtisodiyotimizni barqaror yuksaltirish, yurtimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, mamlakatimizning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish borasidagi katta xizmatlari, sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ish o‘rinlari yaratish, aholi farovonligini ta‘minlashga qo‘shgan munosib hissasi, shuningdek, biznesda erishayotgan amaliy natijalari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi:

**Jaksulikov Shariyar Alliyar uli** — Nukus shahridagi “Data Biznes Control” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Kelimbetov Berdimurat Abdimuratovich** — Nukus shahridagi “Nukus Windows Profil” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Raxmetov Serikbay Xalbayevich** — Ellikqal’a tumanidagi “Agro Eksim Gold” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Satullayeva Venera Aitniyazovna** — Chimboy tumanidagi “Satullayeva Venera” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Xasanov Axmet Tajibayevich** — Taxiatoch tumanidagi “Gold Sandwich” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Yusupova Tamara Raximbayevna** — Amudaryo tumanidagi “Tamara Textile” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Aripov Baxtiyor Muxamedovich** — Andijon tumanidagi “Valley Fish” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Andijon viloyati

**Djorayeva Matluba Muxtarovna** — Xo‘jaobod tumanidagi “Orxideya Textile” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Andijon viloyati

**Komolov Rustamjon Akromovich** — Jalaquduq tumanidagi “Great Rich” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Andijon viloyati

**Sadiqov Bobirbek Avazbekovich** — Andijon shahridagi “Windows and Doors Factory” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Andijon viloyati

Davomi 3-betda



## TAHLIL

BIRYO‘LA IKKI REYTINGDA  
KO‘TARILISH

Yaqinda O‘zbekistonning dunyodagi nufuzi bilan bog‘liq birin-ketin tarqagan ikki xushxabar hammaning e‘tiborini tortdi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari xalqaro reytingida mamlakatimiz 8 pog‘ona ko‘tarilgan bo‘lsa, Open Data Inventory (ODIN)ning ochiq ma‘lumotlar ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahonda o‘ttizinchi, Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi o‘rinni egalladi.

Yangi O‘zbekiston uchun o‘tib borayotgan so‘nggi olti yil tarixiy ahamiyatga ega davr bo‘lgani rost. Keng ko‘lamli islohotlar izchil davom ettirilishi barobarida yurtimizning dunyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash borasidagi ishlar yanada jadallashti. Pirovardida, jahon miqyosida mavqeyi yuksalib, xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori yanada ortmoqda.

BMT Bosh Assambleyasi 2020-yil 14-dekabr kuni “Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyani bir ovozdan ma‘qulladi. E‘tiborlisi, ushbu rezolyutsiyani qabul qilish taklifi Prezidentimiz tomonidan 2020-yilda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surilgan edi.

Barqaror rivojlanish deyilganda ayni paytda umrguzaronlik qilayotgan insonlar ehtiyojini qondirishda kelajak avlodga zarar yetkazmasdan taraqqiy etish tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu hozirgi faoliyat va zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini qondirishda kelajak avlodlarga zarar yetkazmaydigan, balki ular o‘rtasida muvozanatni topadigan taraqqiyotga erishishdir.

Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy g‘oyasi hech kimni ortda qoldirmaslik tamoyiliga asoslanadi. Uning negizida Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo‘yicha erishilgan yutuqlar yotadi va qashshoqlikning barcha ko‘rinishlariga barham berish bo‘yicha sa‘y-harakatlarni davom ettirishga qaratiladi.

Davomi 4-betda



## YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!



Shoirimiz Abdulla Oripov  
“Vatandan ayri ko‘ngilni  
bilingki, yayratib bo‘lmas.  
Baayni bandi bulbulni  
chamansiz sayratib  
bo‘lmas”, degan ikki  
misrasida Vatan va uning  
qudratni g‘oyat yuksak  
pafos bilan ta‘riflagan.  
She‘rda yana bir misra  
bor: Vatan, sen hur,  
yo‘ling shonli, qadamni  
tashlagin shaxdam. Bu  
ayni kunlarimiz ruhi  
va shukuhiga g‘oyat  
uyqashdir.



Buni oddiy odamlar hayotidagi o‘zgarishlar misolida ham ko‘rish mumkin. Quyida shunday yurtdoshlarimizning hayotiy fikrlarini jamladik. Ular, ta‘kidlaganimizdek, oddiy qishloq

odamlari. Sodda va samimiy. Baland-parvoz gaplarni yoqtirmaydi. Jo‘n gapiradi, lekin borini aytadi.

Bugun mustaqilligimizning o‘ttiz ikki yillik bayramiga bag‘ish-

langan maxsus sahifada ulardan ayrimlarining diildagi gaplar bilan tanishishingiz mumkin.

Davomi 3-betda



## BUGUNNING GAPI

MASOFAVIY BOJXONA  
NAZORATI TIZIMI

YO‘LOVCHILARGA QANDAY QULAYLIK YARATADI?

4



## TARAQQIYOT ODIMLARI



## INNOVATSION YONDASHUV

Hayot sifatini yuksaltiradi

5



## SAHNAMIZ DARG‘ALARI

MANNON UYG‘UR  
yaratgan maktab

O‘zbek milliy teatr san‘atidagi o‘rni  
har jihatdan e‘tirofqa loyiq

Jurnalistlar jamoasi ijodiy hamkorlik, fikr almashish, bahs-munozara masalasiga jiddiy yondashib keladi. Atoqli o‘zbek teatri arbobi, rejissor, aktyor, tarjimon, dramaturg, pedagog, milliy teatr maktabi asoschilaridan biri, buyuk san‘atkorlar “Og‘a”si Mannon Uyg‘ur haqida maqola tayyorlayotganimdan xabar topgan bir hamkasbimiz maslahat solib qoldi: — Toshkentda bir paytlar eng uzun ko‘chalardan biri Mannon Uyg‘ur nomi bilan atalgan. Bilishimcha, hozir nomi o‘zgardi, shekilli. Shunga ham aniqlik kiritib ketsangiz, yaxshi bo‘lar edi.

Davomi 6-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
F A R M O Y I S H I

## “FAOL TADBIRKOR” KO‘KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

**To‘lanov Abduxakim Abduxamidovich** — Buloqboshi tumanidagi “Nectar Agro” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Andijon viloyati

**Usmanov Otabek Ganiyevich** — Andijon shahridagi “Vodiy oltin kuz” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Andijon viloyati

**Xamrakulov Abdulaziz Tursunbayevich** — Izboskan tumanidagi “Textile Style” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Andijon viloyati

**Azimov Shamshod Islomovich** — Buxoro shahridagi “Ayvan palas” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

**Axatov Dilmurod Bekmurafovich** — Buxoro shahridagi “Carmen plyus” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

**Achilov Farxod Ibroximovich** — Buxoro viloyati “Leichter Kamalak Textilien” mas’uliyati cheklangan jamiyatining moliya masalalari bo‘yicha direktori

**Baratov Zamirbek Ilhomovich** — Kogon tumanidagi “Siyovush tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Buxoro viloyati

**Deripalko Dmitriy Aleksandrovich** — Buxoro viloyati “Knauf Gips Buxoro” xorijiy korxonasi bosh direktori

**Djabborov Javlon Shavkatovich** — “Peshku agroklaster yog‘moy” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

**Kadirov Odil Gaybullayevich** — “G‘ijduvon ipak tola” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari maslahatchisi, Buxoro viloyati

**Mavlonberdiyev Nodir Raximjonovich** — Kogon shahridagi “Konchi” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

**Mansurov Asror Mexriddinovich** — Qorako‘l tumanidagi “Kumush kalava” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Buxoro viloyati

**Namozova Dilrabo Turayevna** — Tadbirkor nogiron ayollar milliy assotsiatsiyasining Buxoro viloyati bo‘linmasi rahbari

**Sobirov Xudoyor Xudoyqulovich** — Kogon tumanidagi “Kogonneftegazenergoservis” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Buxoro viloyati

**Sultonov Abdulaziz Akramovich** — Vobkent tumanidagi “Vobkent tola klaster” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori o‘rinbosari, Buxoro viloyati

**Teshayev Farrux Bahriddinovich** — “G‘ijduvon agroklaster yog‘moy” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

**Toxtasinov Azamatjon Abdugapparovich** — Buxoro viloyati “WBM Romitex” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi

**Turayev Durbek Isomiddinovich** — Kogon tumanidagi “Prom tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Buxoro viloyati

**Umarov Gulmurod Normurodovich** — Jondor tumanidagi “Arjumanbonu chorvasi” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Buxoro viloyati

**Ilyasova Nasiba Qurbanovna** — G‘allaorol tumanidagi “Nozimabegim Nasibasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

**Inomov Elimdor Ikromovich** — Sharof Rashidov tumanidagi “Dafna ifori” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Jizzax viloyati

**Karimov Furqat Sattorovich** — Jizzax shahridagi “Master System East” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Jizzax viloyati

**Norboyev Davronboy Latifboyevich** — Forish tumanidagi “Nurali-Elnazar chorvador” fermer xo‘jaligi ish boshqaruvchisi, Jizzax viloyati

**Odilov Akmal Ergashevich** — Jizzax shahridagi “Doktor Akmal” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Jizzax viloyati



Kuni kecha ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekiston fuqaroligini olish uchun davlat tilini bilish bo‘yicha imtihon topshirish tartibiga yangiliklar kiritilgani haqida xabarlar tarqaldi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-sentabrda qarori bilan tasdiqlangan nizom asosida tartibga solingan. Fuqarolikka qabul qilishdagi asosiy talablardan biri — talabgorning davlat tili bo‘yicha ko‘nikmalarini baholashdan iborat.

Ijtimoiy tarmoqlardagi kechagi xabarga keladigan bo‘lsak, aslida joriy yilning 14-avgustida fuqarolik olish tartibiga bir qator yangiliklar kiritildi.

Birinchidan, endilikda fuqarolikka qabul qilishda talabgorlarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash uchun hujjatlar bevosita davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali yuboriladi.

Talabgorlarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Avvalgi tartibga ko‘ra, talabgor bevosita Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish

markazi va uning hududiy bo‘linmalariga borib hujjat topshirgan.

Ikkinchidan, fuqarolik olishga talabgor ortiqcha hech qanday hujjat topshirishi shart emas, faqat davlat xizmatlari markazi yoki YIDXP orqali so‘rovnomaga o‘zi haqidagi ma‘lumotlarni to‘g‘ri va to‘liq kiritisa, yetarli.

Talabgorning shaxsini tasdiqlovchi ma‘lumotlar hamda fotosurati Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi tomonidan vakolatli organlar orqali elektron so‘rov asosida olinadi.

ishlab chiqarish korxonasi ta’sischisi, Samarqand viloyati

**Qarshiye Sirajiddin Ergashovich** — Nurobod tumanidagi “Espero.KSE” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Samarqand viloyati

**Muniso Abduaiz Abdulboriyevich** — Samarqand shahridagi “Tespak” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Samarqand viloyati

**Rustamov Ixom Aslamovich** — Samarqand shahridagi “EB Ilyosbek Story House” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Samarqand viloyati

**Saloyev Axmad Akbarovich** — Samarqand shahridagi “Shashlik Uz” xususiy korxonasi rahbari, Samarqand viloyati

**Saloxiddinov Bexruz Sayfiyevich** — Pastdarg‘om tumanidagi “New Tech Samarkand” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Samarqand viloyati

**To‘rayev Zafar Suyunovich** — Urgut tumanidagi “Big Stroy Building” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Samarqand viloyati

**Abduvaxabov Abror Mansurovich** — Sirdaryo tumanidagi “Peng Sheng charm” mas’uliyati cheklangan jamiyati ijrochi direktori, Sirdaryo viloyati

**Axmedov G‘afur Tursunboyevich** — Sirdaryo tumanidagi “Sirdarya Ceramic Produstion” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori o‘rinbosari, Sirdaryo viloyati

**Bekturayev Ummat Abbasovich** — Xovos tumanidagi “Xovos gulshani” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Sirdaryo viloyati

**Buriyev Akmaljon Turaqulovich** — Sayxunobod tumanidagi “Toshkent siti gold blok” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Sirdaryo viloyati

**Vafoyev Sherzod Suleymanovich** — Sirdaryo tumanidagi “Bekzodsher qurilish servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Sirdaryo viloyati

**Djalilov Shavkat Suratovich** — Guliston tumanidagi “Mili Teks Sirdaryo” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Sirdaryo viloyati

**Kupaysinov Xaxramon Gulamovich** — Guliston tumanidagi “Mevazor mebel servis” xususiy korxonasi rahbari, Sirdaryo viloyati

**Xaydarov Sherzod Akramjonovich** — Sirdaryo tumanidagi “River Med Pharm” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Sirdaryo viloyati

**Xamdamov Adxamjon Muxtorjon o‘g‘li** — Guliston shahridagi “Fortuna Textile” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Sirdaryo viloyati

**Shukurova Zuxra Begimkulovna** — Boyovut tumanidagi “Shukurov Hazratqul” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Sirdaryo viloyati

**Boltayev Islomiddin Tursunovich** — Termiz shahridagi “Termiz-Boysun qurilish” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Surxondaryo viloyati

**Ishonkulov A‘zamjon Arslonovich** — Sariosiyo tumanidagi “Sharg‘un bunyodkori” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Surxondaryo viloyati

**Nabiyev Abbas Abdurashid o‘g‘li** — Angor tumanidagi “Fabullo stroy servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Surxondaryo viloyati

**Norboyev Abdusamat Daminovich** — Denov tumanidagi “Mehnat farovon hayot” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Surxondaryo viloyati

**Podshoyeva Malika Yuldosheva** — “Hunarmand” uyushmasining Boysun tumani bo‘limi a‘zosi, kashtachi, Surxondaryo viloyati

**Rasulov Toji Mamatxoliqovich** — Sherobod tumanidagi “Rasulov Toji” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Surxondaryo viloyati

**Sattorov Urol Abdullayevich** — Termiz shahridagi “Saidjon Muhammadjon muzqaymoqlari” mas’uliyati cheklangan jamiyati ish boshqaruvchisi, Surxondaryo viloyati

**Utashev Mansur Shaturayevich** — Termiz shahridagi “Zif Textile” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Surxondaryo viloyati

**Shoto‘rayev Aslbek Raximjon o‘g‘li** — Termiz tumanidagi “Termiz Agro Impex” mas’uliyati cheklangan jamiyati ijrochi direktori, Surxondaryo viloyati

**Yuldoshev Bexzod Jo‘ramaxamadovich** — Muzrabot tumanidagi “Qurbonov Normo‘min” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Surxondaryo viloyati

**Abduxalilov Abdurasul Abdurashidovich** — Bo‘stonliq tumanidagi “Turon Resort” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Toshkent viloyati

**Rizayeva Gavxar Nig‘monovna** — Parkent tumanidagi “Zarkent Gavhari” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Toshkent viloyati

**Saidaxmedov Iqboljon Ibragimovich** — O‘rta Chirchiq tumanidagi “Fresh Food Pack” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Toshkent viloyati

**Saliyev Saydulla Inayatillayevich** — Toshkent tumanidagi “Bonito Group” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent viloyati

**Sideliyov Aleksandr Yuryevich** — Angren shahridagi “Teploizolyatsionnaya kompaniya” xorijiy korxonasi direktori, Toshkent viloyati

**Xvan Grigoriy Mangimovich** — Yuqori Chirchiq tumanidagi “Hanuz Enterprises” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Toshkent viloyati

**Xojiyev Nabijon Nugmanjonovich** — Chinoz tumanidagi “Perfect Paper Group” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent viloyati

**Ergashev Shukurulla Zikrullayevich** — Ohangaron shahridagi “Ohangaron quvur metallurgiya zavodi” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent viloyati

**Yusupov Akmal Maratovich** — Oqqo‘rg‘on tumanidagi “Yustex” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Toshkent viloyati

**Abdullayev Isroil Ismalovich** — Uchko‘prik tumanidagi “MMA Kamtar — Begoyim” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Farg‘ona viloyati

**Axmedov Baxodir Raxmonovich** — Farg‘ona shahridagi “Moderna Ceramic Industries Ferghana” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Farg‘ona viloyati

**Axmedov Qodirjon Maxmudovich** — O‘zbekiston tumanidagi “Turon Eco Cement Group” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Farg‘ona viloyati

**Mansurov Maksudxon Shuxratjon o‘g‘li** — Uchko‘prik tumanidagi “Betonplita” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Farg‘ona viloyati

**Maxmudov Orifxon Olimxon o‘g‘li** — O‘zbekiston tumanidagi “Sement xomashyo savdosi” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Farg‘ona viloyati

**Maxmudov Erkin Omonovich** — Beshariq tumanidagi “Farg‘ona yasin qurilish mollari” qo‘shma korxonasi rahbari, Farg‘ona viloyati

**Oripjonov Islomjon Inomjonovich** — Rishton tumanidagi “Chinor plyus” xususiy korxonasi rahbari, Farg‘ona viloyati

**Radjapov Shavkat Shoirovich** — Uchko‘prik tumanidagi “Mollis” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Farg‘ona viloyati

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

2023-yil 17-avgust

Sh. MIRZIYOYEV

Umuman olganda, keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolik berish tartibi jiddiy soddalashtirildi. Buni raqamlar tahlili ham ko‘rsatadi. Masalan, 1991-yildan 2007-yilga qadar mamlakatimizda jami 482 nafar fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilingan bo‘lsa, 2007-yildan 2016-yilning dekabr oyiga qadar hech kimga fuqarolik berilmagan.

Faqatgina 2016-yildan boshlab fuqarolik berish boshlandi. Shundan buyon 23 mingdan ziyod hamyurtimiz O‘zbekiston fuqarosi, degan yuksak sharafiga ega bo‘ldi.

Furqat TOJIYEV,  
Adliya vazirligi boshqarma boshlig‘i

FUQAROLIKKA QABUL QILISH:  
tartibga o‘zgartirishlar kiritildi



YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

## OZOD KUNLAR SHUKRONASI

Boshlanishi 1-betda

Mustaqillikni  
anglamaganlar ham bo'lgan**Qirg'iz XUDOYQULOV,**  
**mehnat faxriysi**  
Samarqand viloyati  
Bulung'ur tumani

**Bolaligimiz urush yillaridan keyingi og'ir sharoitda o'tdi. Erta ulg'aydik. Suyagimiz qishin-yozin mehnatda qotdi. Daladagi og'ir mehnatning azobi tugamasdi. Uylardim, so'ng farzandlarni voyaga yetkazish g'amida bo'ldik. Har qalay tinchimiz, qozonimiz qaynab turibdi-ku, degan taskin bilan yashadik.**

Bir kuni "O'zbekiston mustaqil bo'libdi", degan xabar tarqaldi. O'shanda kimdir qo'rquvga tushgan, endi nima bo'ladi, qanday yashaymiz, deya sarosimalangan, kimdir qo'lini duoga ochib, Yaratganga hamd-u sano aytgan, shu kunlarga yetkazganiga shukr qilgan, yana kimdir nima bo'layotganini ham anglamay, ketmonini yelkasiga tashlab dalaga ketgan edi.

O'sha kunlardagi bir voqea hech yodimdan chiqmaydi. Kechqurun hovlida yig'ilib, endi nima bo'ladi, degan savol atrofida o'zaro pichir-pichir qilib gaplashib o'tirganimizda, bir do'stimizning bolagina o'g'li kelib "Ota, mustaqillik nima?" deya so'rab qoldi. Hamma jim bo'ldi...

Mana shunaqa. Farzandlarimiz tugul o'zimiz ham ozodlikning mohiyatini yaxshi anglamasdik. Hatto mustaqillikdan qo'rqanlar ham bo'lgan.

Mayli, u kunlarni eslasak gap tugamaydi. Mustaqillik zamonida hayotimiz o'zgardi. Avvalida ko'p qiyinchiliklarni boshdan o'tkazdik. Shunda birov qaytamiz dedi, birov yo'q dedi. Bu paytda mustaqillik haqidagi xabarni eshitib, bir so'z demay dalasiga ketgan oddiy qishloq odami hamon dalada edi...

Hozir yoshim yetmishga yaqinlashdi. Katta o'g'lim Toshkentda o'qib, o'sha yerda qolaman dedi. Qoldi ham. Davlat muassasasiga ishga kirdi. Uylandi, farzandli bo'ldi. Lekin hali uyi yo'q, propiskasi qishloqda edi. Ijarama-ijara yurib yashashdi. Har borganimda boshqa manzilda kutib olardi. Ijarada yashaganlarning taqdiri shu ekan-da. Meni begona uyining to'riga o'tqazardi-yu, ko'zida hadik bo'lardi. Keyin bilsam propiskasi yo'qligidan qo'rqar ekan. Har daqiqada profilaktika inspektori kelib, uydan chiqarib yuborishi, katta jarima solishi mumkinligidan doim hadik bilan yashar ekan.

O'ksinib qishloqqa qaytar ekanman, shu o'g'lim qachon uy-joy qilishi-yu, qachon propiskaga o'tishini o'ylab qiynalardim.

...2019-yilning yozi edi. O'g'lim telefon qilib, "Ota, biz uy oldik", dedi. Ishonmayapman, hech ishonmayapman. Qanaqasiga axir, yig'ib qo'ygan puli yo'qligini bilaman, oylikdan oylikka yashab yurgan bola... Yana poxtadon uy olish...

Banklar uy-joyi yo'qlar uchun emminki kredit bera boshlagan ekan. Shu imkoniyatdan foydalanib bir tanishining

uyini sotib olibdi. Shundan buyon har yilgi qishni Toshkentda o'tkazamiz. Xonalari katta-katta, bahavo, siqilib qolmayisiz.

Mustaqilligimizning ikki davrini ko'rdik. Dastlabki yillarda tom ma'noda qayta qurish, tiklanish davri bo'ldi. Shu bois, qiyinchiliklar, yetishmovchiliklar bo'lgani ham rost. Biz u kunlardan aslo nolimaymiz. Hammasidan rozimiz.

Bugun yuksalish davrida yashayapmiz. Hayotimiz o'zgardi, kundan-kunga o'zgaryapti. Qishloqlardagi hayot tarzi ham o'zgardi. Agar shularni o'z ko'zingiz bilan ko'rmoqchi bo'lsangiz, qishlog'imizga keling. Ko'chalarimiz asfalt, chirog'imiz o'chmayapti, suvimiz, gazimiz bor. Bolalar bog'chasini orzu ham qilmas edik. Yaqinda bog'cha ham qurildi. Nevaralarimiz bog'chaga boryapti. Shu bois, ularning tili biyron, qadami o'tkir, jismi sog'lom.

Men bularni bejiz aytmayapman. Demogichimanki, bugun nimagaki erishgan, erishayotgan bo'lsak, ularning barchasiga Alloh bergan ne'mat — ozod hayot, mustaqil davlatchiligimiz sababchi.

Shuning uchun biz bu ne'matning qadriga yetib, uni asrab-avaylamog'imiz, tinchoqshilik o'tayotgan har bir kunimizga shukrona aytmog'imiz kerak.

## Kitob. Uy. Propiska

MENING UCH ISTAGIM QANDAY AMALGA OSHDI?

**Bir istak yoki maqsad ilinjida yurgan odamning hovuri unga yetishgach bosiladi. Oradan vaqt o'tgani sayin kechilgan yo'l, kechirilgan qiyinchiliklar asta-sekin unutila boshlaydi. Har zamonda bir eslanadigan hikoyaga aylanadi.**

darak edi. Nihoyat ijara uyda emas, o'z uyimizda yashashimiz mumkinligidan mujda bergan bu yangilik bilan yana bir orzum ushaldi. Bu katta hodisa hayotimizda katta o'zgarish yasadi, avvalo, qalbmizga halovat va xotirjamlik tuyg'usini jo etadi. Boy berilgan yillar-u o'ylarning chandig'i lahzalar ichida bitdi, ko'rilgan qiyinchiliklar o'rmini farog'atli damlar egalladi.

Men qatori ko'plab tengdoshlarim, opa-singillarim, aka-ukalarim uyli bo'ldi. Necha yillardan buyon uysiz sarson jonlar, bu eshikdan unisiga, unisidan boshqasiga ko'chib, qo'nim topmagan, ijara uy egasining qovoq-tumshug'i bilan murosa qilib yashashga majbur oilalar o'z turar joyiga ega bo'ldi.

Tez orada uyga ko'chib o'tdik. Hujjat ishlari orasida tuman "pasport stoli"ga borishimizni aytishdi, doimiy ro'yxatdan o'tishimiz kerak ekan. O'sha vaqtgacha yillar davomida har uch yoki olti oyda bir oyog'imiz pasport stolida bo'lgan, bog'cha yoshidagi farzandlarimizgacha

vaqtincha ro'yxatdan o'tardik. Bu gal barchasi o'zgacha bo'ldi. Ishimiz xamirdan qil sug'urganday oson bitdi. Mas'ul xodim hujjatlarni tekshirib ko'rgach, nimalarnidir yozdi, chizdi, 10-15 daqiqa ham kuttirmay pasportimizni uzatdi. Shosha-pisha hujjatimiz qachon tayyor bo'lishini so'radim. *"Bo'ldi, doimiy ro'yxatdasizlar"*, dedi kulib. 15 yilda bitmagan, bitira olmagan ishimizning 15 daqiqaga yetmay amalga oshganidan juda quvondim.

Yana bir gap: yangi islohotlar menga davlat granti asosida magistraturada o'qish imkonini berdi. Bu bakalavr bosqichidan so'ng o'n yil o'tib amonga aylanayotgan bir orzuning tananasi bo'ldi.

Bular — so'nggi uch-to'rt yil ichida islohotlarning birgina mening hayotimda aks etishi. Menga davlatimiz tomonidan berilgan uch imtiyoz chindan ko'p muvaffaqiyatlarga yo'l ochdi. Bu yutuqlarning avvali xotirjam, to'kis va farovon hayotdir.

**Bashorat YUNUSOVA,**  
**Yozuvchilar uyushmasi a'zosi**

Ko'p qatori menda ham shunday. Biroq uch istagimning ushalihi har eslaganda yangilanaveradigan, mazmuni sayqallashaveradigan umrim hikoyalardir. Gap shundaki, 2019-yilda Yozuvchilar uyushmasining yirik loyihalaridan biri — "Birinci kitobim" ruknida o'nlab yoshlar qatori mening ham she'rlar to'plamim chop etildi. Bu davrda adabiyot maydoniga birga kirib kelgan ko'plab tengdoshlarimning kitoblari allaqachon nashrdan chiqqan, ancha-muncha dovruc qozongan edi. 10 ming nusxadagi mazkur to'plam davlat hisobidan bosildi. O'shanda ustoz shoirlardan biri biz, yoshlarga qarata hali mittigina bu kitoblari katta maydonga yo'l ochishini, muvaffaqiyatlarga kalit bo'lishini bashorat qilgan edi. Chindan ham shunday bo'ldi.

2020-yilning erta bahori. Yozuvchilar uyushmasidan qo'ng'iroq bo'ldi. Uyushma a'zoliciga qabul qilinganimni, a'zolik guvohnomasi 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida topshirilishini ma'lum qilishdi. A'zolik men uchun katta imtiyoz edi. Oradan ko'p o'tmay yana bir xushxabar eshik qoqdi: bizga imtiyozli kredit asosida uy ajratilbdi, borib shartnoma olishimiz kerak ekan...

Bu salkam o'n besh yillik sarson-sargardonlikdagi hayotimizning intihosidan

## Qo'l cho'zsak yetar manzillar

**Qo'shrabotdan Nurotaning tog'li qishlog'iga kelin bo'lib tushganimga ham o'n yildan oshibdi. Ota uyim bilan bu yerdagi sharoit deyarli bir xil edi. Biz tomonida qishloqlarga gaz kelmagan. Bolaligimda katta-kichik gaz ballonlaridan foydalanganimiz esimda. Biz unda hali maktabga bormas edik. O'shandan buyon gaz ballonlarini yaqin-yaqinda yana ko'rdik.**

boshlagan, keyinchalik hatto tomirigacha kovlab olib kelib, o'tin o'rniida foydalangan. To'rt-besh yilda shu bodomlar qurib ketgan. *"Keyin soyimizda suv kamaydi, buloqlar tortilib ketdi"*, deydi qaynonam.

Bugun, Xudoga shukr, hamma uyda gaz ballonlari bor. Tugashi bilan boshqasiga almashtirib beradi. Chirog'imiz o'chmayapti. Besh-olti yildan buyon hali hech kimning tog'dan o'tin tashiganini ko'rmasdim. Bodomlar ham o'zini tiklab, o'sa boshladi. Lekin baribir soyimizda hali suv ko'paymadi. Negadir yildan-yilga kamayib boryapti.

Mahallamiz ham o'zgardi. Farzandlarimni bog'chaga berishni orzu qilardim. Mana, yaqinda qishlog'imizda ilk xususiy bog'cha ochildi. Hozir ikki farzandim shu bog'chaga qatnaydi. Katta o'g'lim bu yil maktabga boradi.

Tog'li qishloq kelinlari yaqin yillargacha biror ishning boshini tutish haqida o'ylamasdi ham. Chunki bunga imkon yo'q

edi. Qayerda ham ishlasin, maktabga oliy ma'lumotli kadrlar kerak, boshqa ish yo'q. Tuman markazi olisda.

Lekin bugun men maqtansam bo'ladi. Qishlog'imiz kelinlari ichida birinchilardan bo'lib biznesimni yo'lga qo'ydim. "Mumtozbeqim" mas'uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etib, tikuvchilik korxonasi ochildik. Bu o'z-o'zidan bo'lib qolgan yo'q. Men buni keyingi yillarda mahalla tizimida bo'layotgan o'zgarishlar samarasi, deb bilaman.

Bir kuni mahallamiz raisi Eshmamat Safoyev va hokim yordamchisi Olim Murodov uyimizga kelib, qaynona-qaynotam va erim bilan gaplashdi. *"Kelinigizning qo'lida yaxshi hunari bor ekan, chevar ekan. Keling, biz yordam beramiz, bitta tikuvchilik sexi ochinglar, qishloq qizlariga ham hunar o'rgatsin"*, deydishdi ular. Bu taklifga hammamiz rozi bo'ldik. Shu-shu ishlar boshlanib ketdi.

Qishloq markazida ko'p yillardan buyon ishlamay turgan eski do'konni ta'mirdan chiqardik, jihozladi. Tikuv mashinalari olib keldik.

Yaqinda "Ayollar daftar"da ro'yxatda turgan va kam ta'minlangan 11 nafar qishloq ayoliga uch oy davomida bichish-tikish sirlarini o'rgatdim. Bu vaqtda ularga stipendiya ham berib turdik. Hozir ular sertifikat olgan. Endi tikuv fabrikalariga ishga joylashishi mumkin. Bunga ham hokim yordamchisining o'zi ko'maklashaman, deb turibdi.

Bugun mustaqillik bayrami arafasida men kelinlik davrimda o'z hayotimda bo'lgan mana shu o'zgarishlar haqida aytgim keldi.

**Dilorom YUSUPOVA,**  
**"Mumtozbeqim" MChJ raisi**  
Navoiy viloyati Nurota tumani

Aytmoqchi bo'lganim, yangi kelinligimda uyga mehmon kelsa, hali ular uyga kirmasdan o'choq boshiga yugurar edim. Chunki mehmonlar joylashib olib, dasturxonaga non qo'yilguncha choy qaynatishim kerak. Dasturxon yoziilishi bilan "choy olib kelinglar", deyilardi. Shu chaqiriq yuragimni bezillatib qo'ygandi. Qishloqda choy qaynatishning ham, ovqat pishirishning ham faqat bitta yo'li bo'lardi — o'choqda. Shuning uchun biz — kelinlarning asosiy ish joyi o'choqboshi edi. Dalaga chiqib o'tin terardik, shox-shabbalarni yig'ib qo'yardik, hatto o'tin yorish ham ba'zan o'zimizga qolardi.

Uyimiz shundoqqina Oqtov etagida. Aytishlaricha, bir vaqtlar tog'da bodom ko'p bo'lgan. Gaz ballonlari kelmay qolganidan keyin odamlar shu bodomlarni kesib yoqa



## Nihoyat, o'z faoliyatimiz bilan mashg'ulmiz

**Qishloq odamlari quyoshdan erta uyg'onib, mehnat qilishga odatlangan. Yerga o'tob tushmay uy, tomorqa ishlari uchun ulgurib qolaylik, deymiz. Bolaligimiz mehnat bilan o'tgan bo'lsa-da, shamollashga moyilligim sabab otam salomatligimga jiddiy e'tibor qaratay, uncha-muncha ishga qo'l urdirmasdi.**

**Sohiba YUSUPOVA,**  
**Farg'ona viloyati Buvayda tumanidagi 11-DMTT direktori**

Hech esimdan chiqmaydi. Maktabni bitirib, institutga o'qishga kirdim. Yangi kiyimlarim qatoriga onam 3-4 choynash tibik qo'shib qo'ydi. Chunki yaqin orada paxtaga ketishimiz aytilgan. Sog'lig'imdagi muammo hisobga olinmadi. To'rt yil davomida kuzni bir xil kayfiyatda o'tkazdik. To'g'ri, biz — talabalar uchun u davrning ham gashti bo'lgan, biroq Furqat, Dang'ara, O'zbekiston tumanlari atrofida dalalarning, cho'larning zax havosi tufayli ko'p kasal bo'lib qolardim. To'yib ovqatlanish qayerda deysiz?! Kimningdir ota-onasi ko'rishga kelsa, "shtab"da bayram bo'lib ketardi.

Institutdan so'ng Buvayda tumanidagi bog'chada ishladim. Mutaxassisligim psixolog bo'lgani bois, bolalar bilan ishlash — joni dilim. So'ng 38-maktabga o'tdim. Har ikkala muassasada ham psixolog shtati bitta, birov paxta terimi deysizmi, ko'chat yoki gul ekish deysizmi, oqlash-ko'klashmi — barcha ishni qildik. Issiqni issiq, sovuqni sovuq demadik. Bora-bora ko'chaga ishga chaqirishlariga o'rganib ham qoldik. Axir bu faoliyatimizning bir qismiga aylanib ulgurgan edi-da.

Supurgi ko'tarish mayli, kurak yoki ketmon bilan yurishga odatlandik. Buyruqqa itoat qilmasak, hayfsan olardik. Eng og'riqli, tarbiyachilarning mehnatga majburlanishi ortidan guruhdagi 25-30 bola birgina mutaxassis qo'lida qolib ketardi. Yasli guruhlarida hali bog'chaga moslashmagan kichikintoylarga javobgarlik og'ir edi.

Majburiyat va majburiyat o'rtasida farq bor ekan. Odam qaysi kasbga qiziqsa, uning etagidan tutishga harakat qiladi. Qaysi kasbga mehr qo'ysa, tizimdagi har bir masala majburiyatiga aylanadi. Muammolarning yechimini top-maguncha tinchimaydi.

Bolalikdan qiziqqan soham psixologiya bo'lgani uchun bolalar ruhiyatini o'rganish, ular bilan ishlashdan zavqlanaman. Ta'lim jarayonidan tashqari holatlar esa, o'sha paytlarda tabiiyki, o'z ustimizda ishlashga, o'zimizni kashf etishga imkon bermasdi. Keyingi yillarda hammasi o'zgardi, psixologlar ta'bir bilan aytganda, "ijtimoiy ruhiyatda tub buriish" yuz berdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda pedagoglar sha'ni va qadr-qimmatini davlat himoyasiga olinishi, majburiy mehnatga barham berilishidan kim eng ko'p quvondi? Biz! Bu yangilik haqiqiy bayramga aylandi. Nihoyat, biz ham o'z faoliyatimiz bilan mashg'ulmiz.

Bu o'zgarish va e'tiborning kichkina muassasamizga ijobiy ta'sirini aytay. O'rta ma'lumotli yordamchi tarbiyachilar ham oliy ta'lim olishni, kichikintoylar bilan professional ishlashni istayapti. Ularni rag'batlantiraman, chunki davlatimiz o'qing, ta'lim oling, kelajak sizniki, deya yoshlarni, ayniqsa, xotin-qizlarni ruhlantirayapti. Guruhlardagi muhit o'zgaryapti, tarbiyachilar intilyapti, shunga yarasha ota-onalar farzandini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga berishga harakat qilayapti. Bularning bari hayotimiz o'zgarayotganidan darak.

TAHLIL

# BIRYO‘LA IKKI REYTINGDA KO‘TARILISH



**Bahodir BEGALOV,**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti huzuridagi**  
**Statistika agentligi direktori,**  
**iqtisodiyot fanlari doktori,**  
**professor**

Boshlanishi 1-betda

BRM bo'yicha rezolyutsiya 2015-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 70-sessiyasida qabul qilindi va bu hujjat prinsipial jihatdan yangi global majburiyat hisoblanadi. Unda barqaror rivojlanishning 17 maqsadi va unga erishishning 169 ta vazifasi qayd etilgan. Ya'ni odamlar sog'lig'i va farovonligidan tortib, iqlim o'zgarishigacha, gender tenglikdan tortib, iste'mol va ishlab chiqarish modellari o'zgarishlarigacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olgan.

2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohada belgilangan maqsadlarga erishish uchun dunyodagi har bir davlat geografik joylashuvi, imkoniyatlari va taraqqiyot darajasini hisobga olgan holda o'z milliy maqsadlari hamda ularga erishish strategiyasini belgilab olgan. O'zbekistonda ham 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi kun

imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Faqat bitta — "Barqaror rivojlanish uchun okeanlar, dengizlar va dengiz resurslarini saqlash va barqaror foydalanish" deb nomlanuvchi 14-maqsad va uning tarkibiga kiruvchi 10 ta vazifani bizda amalga oshirishning imkoni yo'q, deb topildi. Sababi, O'zbekiston hududi okean yoki dengiz bilan tutashmagan.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi qarori bilan belgilangan 16 ta maqsadga erishish uchun vazifalar soni 126 taga kengaytirildi va 190 ta milliy BRM indikatorini tasdiqlandi.

2022-yil 29-dekabrda esa Oliy Majlis palatalari kengashlarining mazkur rezolyutsiyani amalga oshirish bo'yicha qo'shma qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan 13 ta yo'nalish bo'yicha 50 dan ziyod aniq chora-tadbirni o'z ichiga olgan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Mazkur qo'shma qaror mazmun-mohiyati Taraqqiyot strategiyasida belgilangan "inson qadriini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" tamoyili bilan uyg'undir.

## Qanday ko'rsatkichlarda o'sishga erishildi?

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni kuzatish hamda ushbu sohada boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun aniq va o'z vaqtida tayyorlangan, tavsiflari bo'yicha taqsimlangan, dolzarb, foydalanish uchun qulay bo'lgan statistik ma'lumotlar zarur. Bu borada statistika hamjamiyati zimmasiga 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi



tarbini amalga oshirishning aniq mexanizmini shakllantirish va ularga erishish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan yo'nalishlar bo'yicha ishchi guruhlar tuzildi. Ular tomonidan har bir global maqsad va vazifalarni milliy ustuvorlikdan kelib chiqqan holda moslashtirish bo'yicha ishlar olib borildi.

O'rganishlar natijasida mamlakatimizda barqaror rivojlanishning jami 17 ta global maqsadidan 16 tasi bo'yicha tegishli choralar ko'rish

ko'rsatkichlarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Dunyoning boshqa davlatlari kabi O'zbekistonda ham Barqaror rivojlanish maqsadlariga milliy miqyosda erishish bo'yicha ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi.

Statistika agentligi rahbarligida milliy barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlari bo'yicha idoralararo ishchi guruh faoliyati yo'lga qo'yilib, uning zimmasiga bu boradagi



**66** BMT STATISTIKA BO'LIMI VEB SAHIFASIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI BO'YICHA ILG'OR TAJRIBAGA EGA DAVLATLARNING USHBU SOHADA AMALGA OSHIRAYOTGAN ISHLARI YORITIB BORILADI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI 2022-YIL YAKUNIGA KO'RA 87 TA SHUNDAY DAVLAT QATORIDAN JOY OLDI VA MAMLAKATIMIZDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHNI KUZATIB BORISH HAMDA JAMOATCHILIKNI XABARDOR QILISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR TO'G'RSIDAGI MA'LUMOT E'LON QILINDI.

global indikatorlar asosida MBRM ko'rsatkichlari tizimini doimiy yangilab borish va uning metodologiyasini shakllantirish, to'plash hamda veb portal (www.nsdg.stat.uz)da e'lon qilish kabi vazifalar yuklatilgan.

O'tgan davr mobaynida agentlik tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda O'zbekiston uchun muhim hisoblangan milliy barqaror rivojlanish maqsadlarining 190 ta indikatorini ro'yxati ishlab chiqildi.

BMT statistika bo'limi veb sahifasida Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha ilg'or tajribaga ega davlatlarning ushbu sohada amalga oshirayotgan ishlari yoritib boriladi. O'zbekiston Respublikasi 2022-yil yakuniga ko'ra 87 ta shunday davlat qatoridan joy oldi va mamlakatimizda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni kuzatib borish hamda jamoatchilikni xabardor qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi ma'lumot e'lon qilindi. Bu borada BMT Taraqqiyot dasturi texnik ko'magi bilan 2019-yilda O'zbekiston Respublikasida milliy barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlari bo'yicha veb-sayt (https://nsdg.stat.uz/) ishlab chiqildi.

Ushbu veb-sayt O'zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha yutuqlarini tahlil qilishda foydalanuvchilar uchun yagona va ishonchli ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Platformada ma'lumotlar oqimini muvofiqlashtirish Statistika agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Veb-sayt zamonaviy vizualizatsiya usullarini taqdim etadi, bu foydalanuvchilarga tahliliy jadvallarni yaratish va grafik tasvirlarning eng mosini tanlash imkonini beradi.

Veb-sayt o'zbek, rus va ingliz tillarida yuritiladi. U MDH mamlakatlari orasida ilg'or amaliyotning ajoyib namunasi va

BMT tizimi bilan muvaffaqiyatli hamkorlik natijasi sifatida e'tirof etildi. Shuningdek, Statistika agentligi tomonidan har yili "O'zbekiston Respublikasida milliy BRMlarga erishish bo'yicha statistik ko'rsatkichlar to'plamlari" uchta (rus, o'zbek va ingliz) tillarida tayyorlanib, nashr etilmoqda.

BMTning Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'i (SDSN) va xalqaro ekspertlari tomonidan mamlakatlarning asosiy indekslari bo'yicha rivojlanish tendensiyalari o'rganib chiqildi. Shunga asosan, yilda bir marotaba SDG index deb nomlanuvchi xalqaro reyting natijalari e'lon qilib boriladi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksini hisoblab chiqish jarayonida 17 ta maqsad bo'yicha 100 ga yaqin xalqaro indeks va indikatorni o'z ichiga oluvchi ma'lumotlar manbalari tahlil qilindi.

2023-yilda shakllantirilgan SDG index hisobotiga ko'ra, O'zbekistonning mavqeyi 166 ta mamlakat orasida 71,1 indeks bilan 8 pog'onaga ko'tarilib, 69-o'ringa loyiq ko'rildi. 2022-yilda O'zbekiston 69,9 indeks bilan 77-o'rinda qayd etilgan edi.

SDG index hisobotiga muvofiq, O'zbekistonda o'tgan yili barqaror rivojlanishning 10 ta maqsadi, ya'ni kambag'allikni qisqartirish (1-maqsad), sog'liqni saqlash va farovonlikni ta'minlash (3-maqsad), sifatli ta'lim (4-maqsad), gender tenglikka erishish (5-maqsad), toza suv va sanitariya (6-maqsad), sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilma (9-maqsad), shahar va aholi punktlarini barqaror rivojlantirish (11-maqsad), iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish (13-maqsad), tinchlik, adolat va samarali boshqaruv (16-maqsad), barqaror taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik (17-maqsad) ko'rsatkichlarida o'sish kuzatilgan.



## Ochiq ma'lumotlar — muhim manba

Raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda elektron hukumat tizimini takomillashtirish masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali muhim axborot manbaidir. Hozirgi kunda mamlakatimizda ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada samaradorlikni oshirish maqsadida qator farmon va qarorlar qabul qilingan.

Ularda Statistika agentligi zimmasiga ham qator vazifalar yuklatilgan. Xalqaro tajriba va foydalanuvchilar fikrini inobatga olgan holda, portaldagi davlat organlari hamda tashkilotlari tomonidan e'lon qilinishi lozim bo'lgan ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini yangilab turish, undan samarali foydalanishni ta'minlash, bu yo'nalishda metodologik yordam ko'rsatish, ochiq ma'lumotlar sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash, xalqaro nufuzli reytinglarda ishtirokini ta'minlash kabilar shular jumlasidan.

Shundan kelib chiqib, 2021-yilning avgust oyida Singapur, Kanada, Buyuk Britaniya, Estoniya kabi davlatlar amaliyoti asosida Ochiq ma'lumotlar portalining takomillashtirilgan yangi versiyasi (data.egov.uz) ishga tushirildi.

Hozirgi kunda portalda 160 ta davlat organi va tashkiloti tomonidan 8 ming 500 dan ortiq ochiq ma'lumotlar to'plami muntazam joylashtirilib kelmoqda. Portal Ochiq ma'lumotlar instituti (Open Data Institute, ODI)ning "Silver" darajali sertifikatini oldi. Shuningdek, Statistika agentligining rasmiy veb-sayti (stat.uz) ham ushbu institutdan ochiq ma'lumotlar sertifikatining jamoa guvohnomasini olish orqali eng yuqori "Platinum" darajasiga erishdi.

Open Data Inception ma'lumotiga ko'ra, jahon mamlakatlari orasida O'zbekiston ochiq ma'lumotlar manbalari soni mavjudligi bo'yicha to'rtinchi, 2023-yil avgust oyida e'lon qilingan Open Data Inventory (ODIN) ochiq ma'lumotlar reytingida esa 70 ball to'plagan holda 2018-yildagi 168-o'rindan 138 pog'onaga ko'tarilib, dunyoda 30-o'rinni hamda Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi.

Open Data Inventory ochiq ma'lumotlar reytingi milliy statistika

idoralari tomonidan yuritiladigan veb-saytlar hamda har qanday rasmiy hukumat veb-saytida taqdim etilgan ma'lumotlarning qamrovi va ochiqligini baholaydi. Umumiy ODIN ochiq ma'lumotlar reytingi bali milliy statistika idoralari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar qanchalik to'liq va ochiq ekani ko'rsatkichi hisoblanadi. Ijtimoiy, iqtisodiy, shuningdek, atrof-muhit statistikasi bo'yicha yig'ma ballar hamda qamrab olish va ochiqlik bo'yicha yig'ma ballar milliy statistika tizimlarining kuchli yoki zaif tomonlarini ko'rsatib beradi.

Open Data Inventory baholashlari dolzarb yo'nalishdagi 22 ta statistik ma'lumotlarni ko'rib chiqadi. Ushbu statistika ma'lumotlari 65 ta indikatoridan iborat. U 2023-yildan boshlab Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) indikatorlari qatoriga kiritildi. Bu, o'z navbatida, reytingning nufuzi oshishiga va 2030-yilga



qadar BRM maqsadlariga erishishni monitoring qilishda mamlakatlarning ochiq ma'lumotlardan kengroq foydalanishiga olib keladi.

Mamlakatimizda ochiq ma'lumotlar tizimini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari shaffofligini ta'minlash va "Ochiq hukumat" konsepsiyasini amalga oshirish, xorijiy investorlarni salohiyatimiz to'g'risida xabardor qilish, turizm xizmatlari bozorini kengaytirish, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatini yo'lga qo'yishda fuqarolik jamiyati ishtirokini yuksaltirish kabi yo'nalishlarda amaliy natijalarga erishish lozim.

Bu jarayonda Ochiq ma'lumotlar portaliga davlat organlari va tashkilotlari axborot resurslarini integratsiya qilish orqali avtomatik ravishda joylashtiriladigan ma'lumotlar to'plamlari soni ko'paytiriladi. Ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish hamda xorijiy mamlakatlarda tashkil etiladigan konferensiya, sammit, forumlarda, shuningdek, o'quv va malaka oshirish kurslarida mutaxassislar ishtiroki ta'minlanadi. Davlat organlari va tashkilotlari, tarkibiy hamda hududiy bo'linmalarida ochiq ma'lumotlar bilan ishlovchi xodimlar malakasini oshirish muhim o'rin tutadi. Ustuvor xalqaro reytinglarda O'zbekistonning pozitsiyasi yaxshilanishi bu boradagi ishlarga ham chambarchas bog'liqdir.

## BUGUNNING GAPI

Joriy yil 16-avgust kuni ommaviy axborot vositalarida xalqaro aeroportlarning uchib ketish yo'nalishida masofaviy bojxona nazorati tizimi joriy etilib, ikki yo'lakli tizimi ("yashil" va "qizil") bekor qilingani qayd etilgan xabarlar yoritildi. Xalqaro aeroportlardagi mazkur ikki yo'lakli tizim 2018-yil 1-yanvarda ishga tushirilgandi.

Xo'sh, yangi — masofaviy bojxona nazorati tizimi nima maqsadda tashkil etildi, uning afzalliklari nimadan iborat, yo'lovchilarga qanday qulaylik yaratadi?

— Bu, avvalo, yurtimizga tashrif buyuruvchilar soni tobora ortib borayotgani bilan bog'liq, — deydi Bojxona qo'mitasi axborot xizmati rahbari Nurbek Salomov. — Ya'ni xalqaro aeroportlar orqali yo'lovchilar oqimi yildan-yilga oshib borayotganidan kelib chiqib, bojxona nazorati tartibotlarini soddalashtirish hamda ularni xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati tug'ildi.

Shuning uchun Prezidentimizning 2022-yil 27-apreldagi farmoniga muvofiq,

xalqaro aeroportlarning uchib ketish yo'nalishida masofaviy bojxona nazorati tizimi joriy etildi. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdagi qarori bilan esa mazkur tizim tartibi belgilab berildi.

Yangi tizim bir qator afzalliklarga ega. Ya'ni u orqali davlat nazorat organlarining **takrorlanuvchi nazorat shakllari** qisqartirilib, nazorat zonalaridan **ortiqcha vaqt sarflamasdan** o'tish imkoniyati yaratiladi.

Avval amalda bo'lgan ikki yo'lakli tizimdan voz kechilib, jismoniy shaxslar va ularning qo'l yuklari **vizual kuzatuv orqali** nazoratdan o'tkaziladi.

Yo'lovchilar bojxona organlari tomonidan **xavfni boshqarish tizimi** tomonidan buyurilganda tekshiriladi.

Jismoniy shaxslar va ularning qo'l yuklarini nazoratdan o'tkazishda Davlat xavfsizlik xizmatining aviatsiya xavfsizligi bo'linmalari bilan **hamkorlik** qilinadi.



# MASOFAVIY BOJXONA NAZORATI TIZIMI

## yo'lovchilarga qanday qulaylik yaratadi?

Shuni ta'kidlash joizki, masofaviy bojxona nazorati tizimida bojxona organlari alohida joylarda xizmat olib borib, yo'lovchilar harakatini cheklamaydi.

Mazkur tizim tufayli mamlakatimiz turizm jozibadorligini oshirish hamda yo'lovchilarning nazorat tartib-taomillariga sarflanadigan vaqt sarfi, shuningdek, ortiqcha ovoragarchiliklar kamaytirishga erishiladi.

Masofaviy bojxona nazorati xalqaro aeroportlar orqali uchib ketayotgan yo'lovchilarni maxsus ajratilgan joylarda xavfni boshqarish tizimidan foydalangan holda tanlab olish tamoyili asosida hamda masofaviy vizual kuzatuvni amalga oshirish orqali bojxona nazorati va rasmiylashtiruvdan o'tkazishni ta'minlaydigan tizim hisoblanadi.

Xalqaro aeroportlarning uchib ketish yo'nalishida jismoniy shaxslarning bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirish va ularga bojxona qonunchiligi bo'yicha tushuntirishlar berish uchun yo'lovchilar harakatiga ta'sir qilmaydigan alohida bojxona rasmiylashtiruvchi joyi tashkil etiladi.

O'zbekiston ochiq mamlakat, turizm salohiyati yuqori. Shu bois, yurtimizga keluvchi sayyohlar soni ham tobora ortib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, birgina o'tgan yilning o'zida "Toshkent" xalqaro aeroportidan jami 4 million 160 ming yo'lovchi ro'yxatdan o'tgan. Shundan 2 million 40 ming nafari kiruvchi, 2 million 123 ming nafari chiquvchi yo'lovchilar. Joriy yilning yetti oyida esa jami yo'lovchilar soni salkam uch million nafargacha yetdi.

Aeroportlarni mamlakat darvozasiga qiyoslashadi. Mamlakat haqidagi ilk taassurot ham shu yerda shakllanadi. Shu jihatdan olganda, ushbu maskanda ko'rsatiladigan xizmatlar qanchalik zamonaviy, qulay va tezkor bo'lsa, shunchalik yaxshi. Bu mamlakatning xalqaro doiradagi imijiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Dilshod ULUG'MURODOV,**  
**"Yangi O'zbekiston" muxbiri**



## TARAQQIYOT ODIMLARI

## INNOVATSION YONDASHUV

## Hayot sifatini yuksaltiradi

Har qanday innovatsion ishlanma ortida uzoq muddatli izlanish, mehnat yotadi.

Mamlakat taraqqiyoti ham bevosita ana shu intellektual kenglikka bog‘liq. Inson turmushi sifatini yaxshilashga qaratilgan ishlanmalarni amaliyotga joriy etish esa alohida murakkab jarayon. Kuzatuv, tahlil, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta‘minlash, mahsulotlar bozorini rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqotlarni tijoriylashtirish ana shu jarayonning bir bo‘lagi. Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi bosh direktor vazifasini bajaruvchi Farhod JUMAYEV bilan suhbatimiz innovatsion loyihalarning global miqyosda muvaffaqiyat qozonishi, bu boradagi sa‘y-harakatlar xususida bo‘ldi.



qurilish, ta‘lim, sog‘liqni saqlash sohalarida texnologik rivojlanish va innovatsiyalarni joriy etish va rag‘batlantirish borasida katta yutuqlarga erishildi. Muhimi, inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha qator ishlar bajarilib, oliy ta‘lim va oliy ta‘limdan keyingi qamrov sezilarli darajada kengaydi.

Innovatsion muhit, innovatorlarga sharoit yaratish borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, o‘tgan yili 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi qabul qilindi.

Barcha vazirlik va idoralar, xo‘jalik birlashmalari, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan yirik tashkilotlarning rahbari o‘rinbosarlarga innovatsiyalarni joriy etish vazifasi yuklatildi. Shuningdek, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishga mas‘ul bo‘linmalar tashkil etildi.

Innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmog‘ida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitali, ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish maqsadida Innovatsiyalar milliy ofisi BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi bilan hamkorlikda tarmoq korxonalardagi innovatsiya bo‘yicha mas‘ul bo‘linma rahbarlari uchun xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida muntazam maxsus seminarlar tashkil etadi.

Seminarlarda strategiyada qo‘yilgan vazifalarning o‘zaro mutanosibligi, tarmoq korxonalari uchun aylanma iqtisodiyotni transformatsiya qilish va unda innovatsiyalarning roli haqida ma‘lumot berib boriladi.

Yosh olimlar va innovatorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning konseptual yangi

avlodini tayyorlash maqsadida “Yoshlar akademiyasi” tashkil etildi. Hozir uning a‘zolari 3800 nafar. Ilmiy va startap loyihalarni amalga oshirish hamda iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tadbirlar platformasi yaratildi.

— **Startap ekotizimini rivojlantirish borasida qanday ishlar qilinmoqda?**

— Startap ekotizimini shakllantirish borasida startap loyihalarga grant mablag‘lari ajratish, startap jamoalarini akseleratsiya va inkubatsiya dasturlaridan o‘tkazish tizimi joriy etilib, 176 startap moliylashtirildi va qo‘llab-quvvatlandi.

Innovatsiyalar milliy ofisi bugunga qadar innovator va kreativ yoshlar bilan hamkorlikda dasturlash, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi kabi yo‘nalishlarda innovatsion loyihalarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Ular orasida alohida e‘tiborga moliklari ko‘p. Foydali mobil ilovalar yaratishda ham yangicha, ijodiy yondashadigan

Sardor Bozorboyev esa “Kun testi” deb nomlangan kreativ mobil ilova ishlab chiqdi. Uning yordamida maktab o‘quvchilari turi fanlarga oid kundalik testlar orqali bilimini sinash va o‘rganilgan ma‘lumotlarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Reyting ball to‘plash orqali oy yakunida g‘olib bo‘lish ham mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilarning ota-onalari uchun natijalar statistikasini doimiy ko‘rib borish imkoniyati mavjud.

Toshkent shahrida “Innovatsion inkubatorlar markazi” MChJ Innovatsiyalar milliy ofisi ko‘magida startap loyihani amaliyotga muvaffaqiyatli joriy qildi. Xonada muntazam tozalik bo‘lishini, havar almashinuvini ta‘minlab beruvchi rekuperatorlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyiha Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan moliylashtirildi. Maxsus havotomozlagich xonani changdan, noxush hid va zararli birikmalardan tozalab, kislorodga boy, musaffo havoni ta‘minlab beradi.



yoshlarimiz ortda qolayotgani yo‘q. Ulardan biri — Saodat Sodiqova boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va umuman, xorijiy tilni endi o‘rgana boshlaganlar uchun ingliz tilini o‘rgatuvchi “Easy Enjoyable English” mobil ilovasini yaratdi. Loyihaning asosiy vazifasi o‘quvchilarning chet tilini mustaqil, o‘yin va interaktiv mashqlar yordamida o‘rganishiga ko‘maklashish. Ilova turli mavzularga asoslangan bir necha bo‘limdan iborat bo‘lib, juda yorqin va qiziqarli interfeysga ega.

Innovatsiyalar milliy ofisi ko‘magida mahalliy xomashyolar asosida karyerlarning avtomobil yo‘lidagi changni bostirish uchun preparatlar yaratish va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha samarali loyiha joriy etildi.

Loyiha doirasida mahalliy xomashyo — kraxmal va kalsiy xloridi asosida changni bostiruvchi preparatlar sintez qilinib, chang bostiruvchi preparatlarning samaradorligi komponentlarning nisbati va tabiatiga bog‘liqligi aniqlandi. Preparat qo‘llanishi natijasida karyer avtomobil yo‘lidagi tuproq mustahkamligi bir necha barobar ortishi aniqlangan. Albatta, bu kabi innovatsion startaplar juda ko‘p, muhimi, ular jamiyat rivojiga hissa qo‘shyapti.

— **Tibbiyot sohasidagi izlanishlar, startap g‘oyalari va ularning amaliyotga tatbiqi haqida ham to‘xtalsangiz.**

— Innovatsiyalar milliy ofisi faoliyati doirasida “Yoshlar akademiyasi” bilan hamkorlikda turli sohalariga tegishli ko‘plab startaplarni rivojlantirish va joriy qilishda ko‘maklashmoqda. Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan startaplar orasida tibbiyotga tegishli talaraygina. Misol uchun, Innovatsiyalar milliy ofisi “Innovative Developers” MChJ bilan hamkorlikda Toshkent viloyati Ohangaron tumani hamda Samarqand viloyati Urgut tumanida “Teledent Clinic” telemeditsina xizmatlari ko‘rsatuvchi innovatsion klinikalar ochdi. Ularda kardiologiya, terapiya, otorinolaringologiya, LOR, nevrologiya,



**“INNOVATSION MUHIT, INNOVATORLARGA SHAROIT YARATISH BORASIDA TIZIMLI ISHLAR QILINMOQDA. XUSUSAN, O‘TGAN YILI 2022-2026-YILLARDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYASI QABUL QILINDI.**

dermatovenerologiya sohalarini bo‘yicha davolash ishlari, shuningdek, UTT, EKG, EEG, dermatoskopiya, oftalmoskopiya, otoskopiya, umumiy peshob tahlili, qondagi qand miqdorini aniqlash va boshqa laborator hamda instrumental tekshiruv usullari orqali bemorlarga aniq va to‘g‘ri diagnostika qo‘yish, davolash, tibbiy maslahat berish ishlari bajarilmoqda. Buning uchun klinika faoliyatiga zarur bo‘lgan 10 dan ortiq telemeditsina uskuna va jihozlari xorijdan keltirildi.

Tibbiyotga doir innovatsion loyihalardan bo‘lgan “Donor top” veb-sayti va mobil

“Plug and Play” platformasi dunyo bo‘ylab 50 dan ortiq vakolatxonani birlashtirgan global tarmoqqa ega yirik kompaniya. Asosiy faoliyati startaplarni rivojlantirish, akseleratsiya dasturlarini joriy qilish va jahonning yetakchi strategik bozorlarida o‘ziga xos maydon taqdim etish orqali iste‘dodli yoshlar va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Memorandum doirasida startaplarni qo‘llab-quvvatlash, texnologiyalar transferi, innovatsiyalarni joriy qilish, Germaniya va boshqa ilg‘or davlatlarning yirik texnologik kompaniyalari bilan hamkorlik o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Startaplarni rivojlantirish bo‘yicha yana bir yirik hamkorimiz Vengriyaning “Startup Campus” kompaniyasi. U biznes g‘oyani muvaffaqiyatli startapga aylantirishgacha bo‘lgan barcha bosqich, jumladan, biznes reja tuzish, marketing, menejment, sotuv, bozorga kirish va investorlarni jalb qilish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatadi. “Startup Campus” kompaniyasi Budapesht shahrida tashkil etilgan, Yevropaning barcha mamlakati bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Hamkorlikda bir qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, ulardan biri “InnoGen Youth Program” dasturidir. Ushbu dasturda o‘zbekistonlik 18 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan olimlar tijoriylashtirishga qaratilgan innovatsion loyihalari bilan qatnashishi mumkin. Dastur doirasida saralab olingan loyiha asoschilari Yevropaning yetakchi oliy o‘quv yurtlari va laboratoriyalarida tadqiqot, amaliyot dasturini o‘tab, g‘oyalarni yevropalik biznes-akselerator mutaxassislari bilan hamkorlikda tijoriylashtirish darajasida rivojlantiradi.

Navbatdagi yirik hamkorimiz sinov, tekshirish va sertifikatlashtirishga ixtisoslashgan, 1828-yilda Fransiya davlati tashkil etilgan yirik “Bureau veritas” kompaniyasi bo‘lib, qurilish, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat kabi sohalarda faoliyat yuritadi. Joriy yilda Innovatsiyalar milliy ofisi va mazkur kompaniya o‘rtasida memorandum imzolangan. Unga ko‘ra, kimyo va xalqaro standartlashtirishni o‘tkazish bo‘yicha ikki tomonlama manfaatli qo‘shma tadqiqot dasturlari ishlab chiqish va amalga oshirish, oliy o‘quv yurtlarida xalqaro standartlarga javob beruvchi sinov markazlari tashkil etish hamda ularni xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish masalasida hamkorlik qilishga kelishib olindi.

Joriy yil mart oyida Shveysariyaga xizmat safari doirasida innovatsiyalar va texnologik transferlar sohalarida yuqori malakaga ega yana bir kompaniya vakillari bilan uchrashib, dastlabki hamkorlikni o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldik. Bu kompaniya Shveysariyaning innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tajribaga ega yirik “Seedstars” kompaniyasi bo‘lib, u bilan hamkorlik doirasida mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlarida biznes-inkubatorlarni tashkil qilish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash ustida ishlashga kelishib olindi.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.**



## NUQTAYI NAZAR

## FANGA QIZIQTIRISHNING KAMXARJ USULI

**Odam o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan yoki eshitgan hodisasini xotirasida yaxshiroq saqlaydi. AR va VR (qo‘shimcha va virtual reallik) texnologiyalari tabiiy muhitda ko‘rish imkonsiz bo‘lgan voqealarni, o‘tmishga qaytish yoki qandaydir murakkab tadqiqotlarni virtual olamda bemalol bajarish imkonini bermoqda.**

Toshkent viloyati Yoshlar texnoparkida kimyo fanini interaktiv tarzda o‘rgatuvchi dastur, ya‘ni virtual laboratoriya dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. Loyiha doirasida yaratilgan VR ko‘zoynaklar orqali o‘quvchilar kimyoviy elementlarning reaksiyaga kirishish jarayonini kuzatishi va o‘zlari ham mashg‘ulotlarni bajarib ko‘rishini mumkin. 3D formatdagi ko‘rinish o‘rganuvchiga har bir hodisani his qilish, mukammal tushunish imkonini beradi. Boisi, jarayonni shunchaki tasvirlarda kuzatmaydi, balki o‘zi ham jarayonda ishtirok etadi.

Texnoparklar startap loyihalarni shakllantirib, ishga tushiradi. Ularga qo‘yiladigan birinchi talab — yangi yondashuv biror muammoning yechimi

bo‘lishi kerak. Virtual laboratoriya loyihasi muallifi Oybek To‘ychiyev ham maktab ta‘limiga oid interaktiv dastur ishlab chiqishni maqsad qiladi. Kuzatuv davomida o‘qituvchilar duch kelayotgan qiyinchiliklardan biri kimyo fanini o‘rgatish, o‘quvchilarni bu fanga qiziqtirish ekaniga guvoh bo‘ldi.

— Hamma maktabda ham kimyo laboratoriyalari uchun kerakli jihozlarni, kimyoviy elementlar bor emas, ayniqsa, chekka joylarda, — deydi loyiha rahbari Oybek To‘ychiyev. — O‘quvchi mashg‘ulotni vizual bajarib ko‘rmasa, unda fanga qiziqish uyg‘otish, mavzuni tushuntirib berish qiyin. Hozir — texnika asri. Har kuni yangi ixtiro va ishlanmalar, bir-biridan hayratlanarli

aqlli texnologiyalarga guvoh bo‘lyapmiz. Demak, mavzuni shunchaki doskada tushuntirish bilan bugunning bolasini fanga jalb qilish qiyin. Shuning uchun ham “Interaktiv ta‘lim VR” dasturini ishlab chiqib, VR ko‘zoynaklar yordamida amaliy mashg‘ulotlar o‘tishni yo‘lga qo‘ydik. Innovatsion dastur shu yil may oyida Ohangaron tumanidagi 12-maktabda qo‘llandi. Loyihaning keyingi bosqichida fizika, tarix, biologiya fanlarini ham virtual reallik asosida o‘rganish uchun maxsus laboratoriya dasturlari ishlab chiqiladi.

“Aqlli” dasturlar ta‘limni chegara bilmas maroqli mashg‘ulotga aylantiradi. O‘quvchi kimyoviy moddalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashi shart emas. VR ko‘zoynakni taqishi bilan jarayon virtual tarzda kechadi.

— Zamonaviy laboratoriya o‘quvchilarga mashg‘ulotlarni mustaqil va xavfsiz o‘tish imkonini beradi, — deydi Ohangaron tumanidagi 12-maktab



o‘qituvchisi Shohsanam Ergasheva. — Bilasizmi, hozirgi yoshlarni faqat daftar, qalam, ko‘rgazmali qurollar bilan darsga qiziqtirish qiyin. Kimyoviy elementlarning reaksiyaga kirishishi, ikki moddaning birikishidan boshqa bir modda hosil bo‘lish jarayoni qiziqarli. Faqat buni o‘quvchi o‘z ko‘zi bilan ko‘rsangiza fanga mehri oshadi.

Axborot texnologiyalariga ham, soha sirlarini puxta egallagan mutaxassislarga ham talab yuqori. Yosh avlodga maktab davridanoq dunyo talabiga monand ta‘lim berish, albatta, samarasini ko‘rsatadi. Kechaning fantastikasi bugunning realligiga, bugunning fantastikasi ertaning realligiga aylanib borayotgan shiddatli zamonda “aqlli” texnologiyalardan kundalik hayotimizda foydalanish ham oddiy holga aylanib boraveradi. Virtual sayohat, mashg‘ulot, xarid bir vaqtlar biz uchun mutlaqo yangi, shu bilan birga, shubhali ham edi. Bugun esa ularning afzalliklari isbotlanmoqda.

**Feruza JO‘RAYEVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

## SAHNAMEZ DARG‘ALARI

## MANNON UYG‘UR YARATGAN MAKTAB

O‘zbek milliy teatr san‘atidagi o‘rni  
har jihatdan e’tirofga loyiq

**SAN‘AT FIDOYISI 1955-YIL OKTABR OYIDA  
58 YOSHIDA VAFOT ETDI. MUSTAQILLIK YILLARI  
BOSHQA MARHUM ULUG‘ SAN‘ATKORLAR SINGARI  
MANNON UYG‘URNING HAM O‘ZBEK TEATR  
SAN‘ATI RIVOJIDAGI XIZMATLARI ALOHIDA  
E‘TIROF ETILIB, DAVLATIMIZNING YUKSAK  
MUKOFOTI — “BUYUK XIZMATLARI UCHUN”  
ORDENI BILAN TAQDIRLANDI.**



**Nodir MAHMUDOV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Boshlanishi 1-betda

1

O‘ylab qarasam, agar rostdan ham shunday o‘zgarish qilingan bo‘lsa, buni aniqlash fikri — jo‘yali maslahat. Toshkent shahar hokimining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Akmal Ro‘zitoyev bilan bog‘landim.

— Bu qisman to‘g‘ri, — dedi hokimlik vakili. — Bir necha yil avval Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi qarori bilan poytaxtimizdagi yangi ko‘chalarga nom berildi, mavjudlaridan ayrimlarining nomi o‘zgardi. Mannon Uyg‘ur ko‘chasining bir bo‘lagi Ko‘kcha Darvoza nomini oldi, lekin asosiy qismi aslicha qoldirilgan. Hozir poytaxtimizda Mannon Uyg‘ur nomidagi bitta katta ko‘cha, bitta tor va bitta berk ko‘chalar mavjud. Bundan tashqari, Shayxontohur tumanida san‘at arbobi nomi berilgan mahalla ham bor.

Eshitgan — boshqa, ko‘rgan — boshqa. Mannon Uyg‘ur ko‘chasiga tutash shu nomli mahallani ham topdik. Hududning ko‘rinari joyida Mannon Uyg‘urga bag‘ishlab uning xizmatlari qayd etilgan lavha ham o‘rnatilganiga ko‘zimiz tushdi.

— Mahallamizga Mannon Uyg‘ur vafotidan bir yil o‘tib, 1956-yil uning nomi berilgan, — deydi rais Shokirbek Muzroboev. — Ko‘rib turganingizdek, ko‘chalarimiz sarishta, obod, odamlari ahil. Mahallamiz ulug‘ san‘at arbobi nomiga munosib namunali mahalla hisoblanadi. Turli bayram tadbirlarimizga O‘zbek milliy akademik drama teatri aktyorlarini ham taklif qilamiz, ular bajonidil ishtirok etib, xalqimizga ma‘naviy zavq ulashadi, ustozlariga hurmat bajo keltiradi.

Olti mingga yaqin aholi istiqomat qiladigan mahallaning yoshi ulug‘lar bunday tadbirlarda Mannon Uyg‘urning chin shogirdlari qatnashishini kanda qilmaganini yaxshi eslashadi.

— Mahallamiz tadbirlarida el nazaridagi buyuk san‘atkorlar, aktyorlar bilan ko‘p suhbatlashganmiz, dildan gurunglashganmiz, askiyalariga qo‘shilganmiz, — deya xotirlaydi mehnat faxriysi Maqsd ota Sultonov. — Yodimda, 1960-yillarning oxiri qaysidir bayram arafasida xalq artistlari Nabi Rahimov, Zikir Muhammadjonov boshchiligidagi san‘atkorlar bilan uchrashuv bo‘ldi. Ular ustozlari Mannon Uyg‘ur haqida, o‘zlarini u kishining nomidagi mahallaning a‘zosiidek his qilishlari haqida gapirishdi. Odamlar xursand, kayfiyat bayramona. Bir payt askiya boshlanib ketsa, deng. Davra bir zumda katta sayil ruhini oldi. Bizdan yoshi ulug‘lar xalq artistlari bilan teppa-teng “tashlashib” turishibdi, atrof — kulgi, qahqaha, qiyqiriq. Bunday damlarni esdan chiqarib bo‘lmaydi!

Qiziqish tufayli mahalla raisi Shokirbek Muzroboev va oqsoqol Maqsd ota Sultonovni savolga tutdik:

— “Uyg‘ur” — buyuk san‘atkorning taxallusi. Haqiqiy ismlari — Abdumannon Majidov! U kishi o‘ziga nega bunday taxallus tanlagan?

Savolimiz javobsiz qoldi va bu tabiiy edi. Chunki...

2

Chunki maqolani tayyorlash jarayonida ushbu savolga javob izlab qator manbalar bilan tanishishga to‘g‘ri keldi. Bu masala nafaqat bizni, o‘z paytida juda ko‘pchilikni ham qiziqitirgan ekan. Eng jo‘yali javobga Mannon Uyg‘urning chin shogirdlaridan biri, O‘zbekiston Qahramoni, xalq artisti Zikir Muhammadjonovning o‘z vaqtida e‘lon qilingan maqolasida duch kelgandek bo‘ldik. Maqoladan olingan quyidagi parcha masalaga biroz oydinlik kiritisa kerak:

“U kishi Qur‘oni karimni boshidan oxirigacha yod bilgan ekan. Aytishlaricha, o‘sha vaqtdayoq o‘ziga taxallus tanlab olgan. Bu taxallus Uyg‘ur bo‘lib, uning ma‘nosini o‘zi bilgan-u, boshqalarga aytmagan. O‘sha vaqtlarda uni ba‘zan Uyg‘ur, ba‘zan Og‘a deb chaqirishar edi.

Keyinchalik o‘zbek san‘atkorlarining deyarli hammasi uni Og‘a deb atashavergan. Mannon Uyg‘ur tavalludining 80 yilligi munosabati bilan Sa‘dulla Ahmadning “Guliston” jurnalining 1977-yil sentabr sonida bosilgan “Sahnemiz sarboni” maqolasida shunday so‘zlar bor: “O‘zbekistonda birinchi professional teatr tashkilotchisi, atqoli rejissor Mannon Majidovning nima uchun Uyg‘ur taxallusini qabul qilganini bugungi kunda hayot bo‘lgan shogirdlaridan so‘rab, aniq javob ololmadik.

“Biz bu nomga shunchalik ko‘nikib ketgan edikki, otamdan nega bunday taxallus olganini so‘rash esimizga ham kelmadi. Har holda, uyg‘ur xalqi nomidan olmaganiqli aniq. Otam so‘z ummonida ko‘p va xo‘b so‘zlagan bir g‘avvos edi. Bu so‘zning ma‘nosini lug‘atlardan izlash kerak”, — deb javob beradi san‘atkorning o‘g‘li Qo‘rqmas Majidov. Klassik va boshqa turli xildagi eski lug‘atlarni varaqlab chiqdik. Nihoyat, 1969-yilda nashr etilgan “Qadimgi turk lug‘ati” kitobining 362-betida “uyg‘ur” so‘zining ma‘nosi “uyg‘otish” deb berilganiga ko‘zimiz tushdi. Boshqacha bo‘lib chiqishi mumkin ham emasdi. Mannon Uyg‘ur chin ma‘noda mazlum Sharqni uyg‘otuvchilaridan... Uyg‘ur bundan 80 yil muqaddam o‘zi tug‘ilgan Zanjirlik mahallasinigina emas, ulg‘aya borib, Turkiston va Sharq, balki butun jahonni zanjirband ko‘rdi.

Teatrshunos, professor Muhsin Qodirov o‘zining bir maqolasida yuqoridagi fikrni davom ettirib, shunday xulosaga keladi: “Shu paytgacha Mannon Majid o‘g‘li nima uchun Uyg‘ur taxallusini tanlagani va bu so‘z qanday ma‘no anglatishi to‘g‘risida har xil taxminlar yuradi. Hatto bir uyg‘urcha ro‘znomada “Hamza teatrlarining tashkilotchisi Mannon Uyg‘ur ham o‘zimizdan, ya‘ni uyg‘urlardan”, deb yozishgan. Teatrshunoslar odatda



Arxiv surati.

bu masalani chetlab o‘tadilar. Yaqinda Abulqoziy Bahodirxonning “Shajarai turk” asarini varaqlab turib, “uyg‘ur” so‘ziga berilgan izohga ko‘zim tushdi. “Uyg‘ur”ning ma‘nosi yopishqur demak bo‘lur, — deyiladi unda. — Ayturlar: sut uyudi. Sut erkanida biri biridan ayrilur. Uyuganidan so‘ng ayrilmas. Uyudi, ya‘ni yopishdi”. Mannon Majidov taxallusining ma‘nosi aslida ana shunday. U o‘zini uyushqoq, uyushtiruvchi, birlashtiruvchi deb bilgan, san‘atda u uyg‘ur bo‘lishni orzu qilgan edi, shunday bo‘ldi, u taxallusini oqladi”.

Ma‘lum bo‘lyaptiki, Mannon Majidov o‘ziga Uyg‘ur taxallusini atayin tanlagan. Odatda, shoirlar qadim zamonlardan o‘zlariga taxallus qo‘yar edi, san‘atkorlarda bu kam uchrasa-da, amaliyotda bor hodisa ekan.

3

Zamonaviy shakldagi o‘zbek teatr san‘ati va hozirgi O‘zbek milliy akademik drama teatri (sobiq Hamza nomidagi teatr)



asoschilaridan biri, umrining oxirigacha shu yerda faoliyat yuritgan buyuk san‘at darg‘asi, O‘zbekiston xalq artisti Mannon Uyg‘ur (Abdumannon Majidov) 1897-yil Toshkent shahrida tavallud topgan.

Otasini Toshkentning Shayxontohur dahasida Majid oqsoqol deb nom chiqargan hurmatli nuroniylardan bo‘lgan. Oqsoqol Toshkentning “Piyonbozor”, ba‘zan “Voskresniy” bozor deb atalgan qismida faoliyat yuritgan. Rus tilini bir oz bilgani sabab Toshkent atrofidan kelgan dehqonlar bilan ruslar o‘rtasida tilmochiilik ham qilari edi.

Mannon otasini o‘sha vaqtlarda Toshkentga kelayotgan teatr tomoshalariga olib tushar va uning taassurotlarini bilgisi kelardi. Ota bir necha spektakllarni ko‘rgach: “Teatr bu — ma‘rifat o‘chog‘i ekan-ku” deb, o‘g‘lini quvontiradi. Lekin uning artist bo‘lishiga roziligini sira aytmasdi. Majid oqsoqol o‘z farzandining san‘atkor bo‘lishiga dastlab qarshilik ko‘rsatsa ham, bora-bora u tanlagan soha millat uchun zarurligini fahmladi.

Mannon Uyg‘ur sahnadagi ilk faoliyatini 1916-yil Toshkentdagi “Turon” truppasida havaskor aktyor sifatida boshlagan. Oradan uch yil o‘tib, Toshkent shahrida o‘zbek professional truppasini tashkil etib, unga rahbarlik qilgan.

Truppada sahnalashtirilgan spektakllarda o‘zi rollar o‘ynagan. 1918-yilda “Turkiston tabibi” asarini yozib, unda Yeshimqul obrazini talqin etdi. 1921-yil G‘ulom Zafariyning “Halima” musiqali

dramasini sahnalashtirib, undagi Rahim, so‘ng Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Boy ila xizmatchi” asaridagi G‘ofur obrazini yuksak mahorat bilan sahnaga olib chiqadi.

Moskvada O‘zbek maorif uyi qoshidagi drama studiyasida ta‘lim olib qaytgach, Hamza teatrlarining rejissori va badiiy rahbari sifatida faoliyat yuritdi. Ozarbayjon va tatar dramaturglarining qator asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

U jamoaning eng yaxshi professional va axloqiy an‘analarni shakllantirdi. Aktyor va rejissorlar, ajoyib sahna ustalarining bir necha avlodiga saboq bergan, tarbiyalagan, ularni o‘zbek milliy sahna san‘atiga shuhrat olib keluvchilar darajasiga olib chiqqan. Shogirdlari qatorida A.Hidoyatov, S.Eshonto‘rayeva, Sh.Burhonov, N.Rahimov, Z.Muhammadjonov, L.Nazrullayev, Z.Hidoyatova, Z.Sadriyeva kabi nomlarning borligiyog‘ Og‘aning ulkan iste’dodi, mehnatlari samarasini angatadi.

Uyg‘ur trupпасi aktyorlik shaxsiyatining turli qarashlari asosida shakllangan.

**MANNON OTASINI O‘SHA VAQTLARDA TOSHKENTGA  
KELAYOTGAN TEATR TOMOSHALARIGA OLIB TUSHAR VA  
UNING TAASSUROTILARINI BILGISI KELARDI. OTA BIR NECHA  
SPEKTAKLARNI KO‘RGACH: “TEATR BU — MA‘RIFAT  
O‘CHOG‘I EKAN-KU” DEB, O‘G‘LINI QUVONTIRADI. LEKIN  
UNING ARTIST BO‘LISHIGA ROZILIGINI SIRA AYTMASDI.  
MAJID OQSOQOL O‘Z FARZANDINING SAN‘ATKOR  
BO‘LISHIGA DASTLAB QARSHILIK KO‘RSATSA HAM, BORA-  
BORA U TANLAGAN SOHA MILLAT UCHUN ZARURLIGINI  
FAHMLADI.**

U truppani “jamlagan” va unga boshqa havaskor, shaxsiy teatrlardan iqtidorli yoshlarni taklif etgan. Jamoani to‘plab, ardoqladi va Hamza nomidagi teatrlarining birinchi avlodini badiiy cho‘qqilarga olib chiqdi. Mannon Uyg‘urda rejissorning uchta asosiy jihati — murabbiy, sahnalashtiruvchi, rahbar kabi sifatlar uzviy ravishda uyg‘un edi.

4

Murabbiy sifatida Uyg‘ur aktyorlarni birin-ketin katta dramaturgiya aylanasisiga olib kirdi. Uning eng yaxshi sahna asarlari — Shekspir asarlari hamda tarixiy spektakllar edi. Uyg‘ur sahna texnikasiga katta ahamiyat qaratgan, har bir imo-ishora sayqalga, sahnaning jonliligiga — aktyorlar imo-ishorasi, harakati, so‘ziga astoydil e’tibor bergan, sahnada jaranglayotgan har bir so‘zga katta ahamiyat qaratgan. O‘zbek tilini yaxshi bilgan, juda boy adabiy tilda so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lgan. “Agar sahnada tomoshabinlarga teskari tursang, sening yelkang rol iro etaversin”, der edi shogirdlariga mashg‘ulotlar vaqtida.

Uyg‘ur maktabini o‘tagan aktyorlar ajoyib toza nutqi, boy talaffuz ranglari bilan ajralib turgan va bu sifatlar hamon birlamchidir. Sahna afsonasi Shukur Burhon eslaydi:

“U tun-u kun teatrdagi band edi. Hatto boshqalar sahnada asar qo‘ygan vaqtida ham, ular bilan birga spektakllarga rejissorlik qilgan. U arzimasa xatolarga ham tanbeh berardi, ehtimol, noto‘g‘ri talaffuz qilingan harf orqali u bizga haqiqiy o‘zbek tilini o‘rgatgan. U bizga aktyor o‘zini sahnada qanday tutishi, gapirishi, to‘xtamlarga rioya qilishi kerakligini ko‘rsatdi...”

Garchi, teatr ilmiga ega bo‘lmasam-da, yuzlab rollar iro etdim. Uyg‘urning qo‘lida o‘qiganim, uning maktabini o‘taganimdanda g‘ururlanish va xursand bo‘lishdan to‘xtamayman”.



5

Shu o‘rinda Zikir Muhammadjonovning maqolasiga yana murojaat qilsak. Unda shunday satrlar bor:

“Mannon Uyg‘ur o‘zbek tomoshabinlarining ruhini yaxshi o‘rgangan edi. Oxirgi kurslarga kelganda Karlo Gossining “Malikai Turondot” asarini tayyorlashadi. Uyg‘urning taklifi bilan milliy xususiyatlarni yorqin aks ettirishga harakat qilinadi. Mazkur asarda buning uchun katta imkoniyatlar bor edi. Asar talqinida har bir rejissor xalqning turmush tarzi, fe‘l-atvori va o‘z ko‘nglidagi armonlarini asarga qo‘shishi tabiiy, albatta. Shu bois, Mannon Uyg‘ur har bir sahnada o‘zbekona milliy urf-odatlarini, mushohadalarni shu spektakl orqali tomoshabinlarga bayon eta olgan. Men o‘zim 1940-yillarga kelib qayta tiklangan bu “Malikai Turondot” asarida Shukur Burhonov, Yetim Bobojonov, Mannon Uyg‘urlar ijrosidagi rollarni ko‘rganman...”

...Mannon Uyg‘ur juda ko‘p yillar, aytish mumkin, umrining oxirigacha teatrlarining bosh rejissori, badiiy rahbari bo‘lib ishladi. U hamkasblariga nihoyatda jo‘nkuyar edi. Deyarli mayda-chuyda ishlargacha aralashar, uning maqsadi teatrlar, jamoasini

bo‘lganimdan hamisha faxrlanaman. Bir safar uyda Mannon Uyg‘urni eslaganlarida onam ustozining so‘zga juda usta bo‘lganini aytib, har bir kishidan so‘zni ravon aytishni qat’iy talab qilganini yodga olgan edi.

7

Joriy yil 5-iyul kuni Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida saylovchilar bilan uchrashuvda Mannon Uyg‘ur hayoti va ijodi, uning milliy san‘atimiz rivojida tutgan o‘rni, u yaratgan sahna maktabi kabi mavzularni alohida tilga oldi. Mamlakatimizda san‘at, madaniyatni rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida so‘z yuritir ekan, jumladan, yosh rejissorlar uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’is etilishi, mukofot bilan har yili 27-mart — Xalqaro teatr kunida musiqali, drama va qo‘g‘irchoq teatri yo‘nalishidagi eng yaxshi spektakllar yaratgan yosh rejissyorlar taqdirlanishi, har bir mukofot miqdori kamida 100 million so‘mdan kam bo‘lmasligi haqida fikr bildirdi.

— Prezidentimizning uchrashuvda milliy teatrimiz, san‘atimiz haqida kuyinchaklik bilan aytgan gaplari, uni yanada yuqori pog‘onalarga olib chiqish uchun o‘ylab yurgan rejalari bilan o‘rtog‘lashganlari meni qattiq hayajonga soldi, — deydi O‘zbekiston xalq artisti Rixsi Ibrohimova. — Ayniqsa, ulug‘ inson Mannon Uyg‘ur hayoti, ijodi, faoliyatiga bergan e’tibor-u e’tiroflaridan boshim ko‘kka yetdi.

Teatr taraqqiyotini rejissorsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki u ijodiy jamoada yetakchi o‘rin tutadi, aktyorlar murabbiysi, ularga g‘oyaviy fikr beruvchi rahnamo hisoblanadi. Shu bois, rejissor xuddi kema darg‘asi kabi kishilarni aniq maqsad sari yetaklay olish salohiyatiga ega bo‘lmog‘i lozim. U doimo davr talabi va tomoshabinlar ma‘naviy ehtiyojiga hozirjavob bo‘lishi kerak. Bu kasb sohibi ana shunday mas’uliyatli va sharafli ijodkordir. Uyg‘ur og‘a ana shu talablarning barchasiga javob bera olgan.

Bu insonni ko‘rgan san‘atkorlar bugun oramizda deyarli yo‘q. Afsuski, Uyg‘ur og‘ani ko‘rish, undan saboq olish menga nasib qilmagan. 1955-yili institutning 1-bosqichida o‘qiyotganimda, teatrga ishga kelishimdan ikki hafta oldin u kishi vafot etgan. Teatrdagi salohiyatiga kezarim butun teatr jamoasi faqat Mannon og‘a haqida gapirar, har bir spektakl va repetitsiyalar mobaynida albatta, u kishini xotirlar edi. Ustozim Sora Eshonto‘rayeva va Og‘ani ko‘rgan, hamushbat bo‘lgan boshqa yoshi ulug‘lardan Mannon Uyg‘ur shaxsiyati, u kishining ish uslubi haqida ko‘p eshitdim, o‘zimga g‘oyibona ustoz, deb bildim.

8

San‘at fidoyisi 1955-yil oktabr oyida 58 yoshida vafot etdi. Mustaqillik yillari boshqa marhum ulug‘ san‘atkorlar singari Mannon Uyg‘urning ham o‘zbek teatr san‘ati rivojidagi xizmatlari alohida e’tirof etildi, davlatimizning yuksak mukofoti — “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

9

O‘zbekiston xalq shoiri G‘afur G‘ulomning “San‘atim” she‘ri ni xalq artisti Sherali Ro‘yayev o‘ziga xos talqinda ijro etgan. Unda o‘zbek san‘atini yuksaklarga ko‘targan ulug‘ san‘atkorlar nomi keltiriladi, san‘atimiz buyuk ekani asoslanib, “Shuning uchun dag‘dag‘asi osmonlarcha bor”, deya ta’rif beriladi. Ana shu dag‘dag‘aga ruh bergan, motivatsiya bergan siymo ham Mannon Uyg‘urdir!

Fikrimiz quruq bo‘lib qolmasligi uchun bir misol keltirsak: O‘zbek milliy akademik drama teatrida XX asrning 30-yillaridayoq “Gamlet” muvaffaqiyatli sahnalashtirilib, tomoshabinlarning yuksak olqishiga sazovor bo‘lgan. Bu rejissor Mannon Uyg‘urdek ulkan san‘atkorning salohiyati tufayli edi. 1940-yillarga kelib, Mannon Uyg‘ur rus rejissori N.Ladigin bilan birgalikda Vilyam Shekspiring “Otello” asarini tayyorlab, teatr dovrug‘ini yangi pog‘onaga ko‘tarishga muvaffaq bo‘ldi. Muxlislarining “Otello”ga mehri “Gamlet”dan ham yuqori bo‘lgan. Urush yillari shahrimizga tashrif buyurgan ingliz parlamenti a‘zosi janob Jonson “Teatr kitobi”ga shunday so‘zlarni yozib qoldirgan:

“Biz — Shekspir vatanidan kelgan mehmonlar o‘zbek teatri sahnasida “Otello” spektaklini tomosha qilib, hozirgi zamonda o‘zimizning mamlakatda bu qadar yuksak ijroni ko‘rmaganimizdan qoyil qolganimizni mamnuniyat bilan izhor etamiz. Bu ijroni butun dunyo ko‘rish kerak!”.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DUK

MUASSIS:  
**O‘zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:  
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.  
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-846. 43690 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov  
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz: 100029,  
Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05